

# O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MINIATYURA SAN'ATIGA OID MATERIALLARDAN FOYDALANISH

*Pardayev Baxtiyor Abdujabborovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi*

*o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston*

*e-mail:pardayevbaxtiyor89@gmail.com*

*Аннотасија. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni va mohiyati o'rta asrda yurtimiz erishajak kuch-qudrat, farovonlik va madaniylik, ma'rifiylik va ma'naviylik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu ma'noda miniatyura san'ati nafaqat Sharq madaniyatining me'morlik, adabiyot, falsafa, kitobat san'ati kabi jahon madaniyati va san'ati tarixidan o'zining munosib o'rnini egallagan noyob san'at turigina emas, balki oliy maqomdagi romantika va Sharqona reallik ramzi, tarbiyaviy imkoniyatlari zamonaviy sharoitda to'liq foydalanilayotgan san'at turi sifatida ham asrlar osha jahon axlini rom etib kelmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *miniatyura, maktab, san'at, adabiyot, kitobat san'ati, illyustratsiya.*

\*\*\*

*Annotation. The content and essence of the educational work carried out today is one of the main factors determining the level of strength, prosperity and culture, enlightenment and spirituality that our country will achieve in that century. In this sense, miniature art is not only the architecture, literature, philosophy of Eastern culture. not only as a unique art form that has taken its rightful place in the history of world culture and art, but also as a symbol of high-level romance and Eastern reality, an art form whose educational potential is fully used in modern conditions. has been captivating the minds of the world for centuries.*

**Keywords:** *miniature, school, art, literature, book art, illustration*

\*\*\*

*Аннотации. Содержание и суть проводимой сегодня просветительской работы является одним из основных факторов, определяющих уровень силы, благополучия и культуры, просвещения и духовности, которых наша страна достигнет в том веке. В этом смысле искусство миниатюры - это не только архитектура, литература, философия восточной культуры. не только как уникальный вид искусства, занявший достойное место в истории мировой культуры и искусства, но и как символ высокого уровня романтики и восточной действительности, вид искусства, образовательный потенциал которого полностью используется в современных условиях. веками захватывали умы мира.*

**Ключевые слова:** *миниатюра, школа, искусство, литература, книжное искусство, иллюстрация.*

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni va mohiyati o'sha asrda yurtimiz erishajak kuch-qudrat, farovonlik va madaniylik, ma'rifiylik va ma'naviylik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yosh

zamondoshimizning ma'naviy kamoloti xususida qayg'urish respublikamiz pedagogika fanining bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biridir. Zero, mamlakatimizning taraqqiyotida birinchi navbatda jamiyat a'zolarining aql-zakovati, ma'naviyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda miniatyura san'ati nafaqat Sharq madaniyatining me'morlik, adabiyot, falsafa. kitobat san'ati kabi jahon madaniyati va san'ati tarixidan o'zining munosib o'rnini egallagan noyob san'at turigina emas, balki oliy maqomdagi romantika va Sharqona reallik ramzi, tarbiyaviy imkoniyatlari zamonaviy sharoitda to'liq foydalanilayotgan san'at turi sifatida ham asrlar osha jahon axlini rom etib kelmoqda.

Sharq miniatyura san'ati shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi manba tariqasida jahonshumul ahamiyat kasb etganligini uning namunalari saqlanayotgan muzey, kutubxona va shaxsiy kolleksiyalarning nomlarini keltirish bilan ham izohlash mumkin. Faqat Kamoliddin Behzod mo'yqalamiga mansub asarlarning o'zi Fransiyaning mashhur Luvr muzeyida, Britaniya muzeyida, AQSHning Boston va Metropolitan muzeylarida, Qohiraning "Islom san'ati" muzeylarida saqlanadi. Bu dalillarning barchasi mazkur muammo pedagogik yo'nalishdagi tadqiqot sifatida dolzarb muammo va u o'quvchilarning miniatyura san'atiga ijobiy munosabatini shakllantirish, shaxsni rivojlantirish, uning ma'naviy dunyosini kengaytirishda muhim madaniy-tarixiy manba ekanligidan dalolat beradi.

Miniatyura san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va undan o'quvchilarning badiiy-estetik, ma'naviy kamolotlarida foydalanish ko'p qirrali, murakkab jarayondir. Bu jarayonda miniatyura san'ati vositasida o'quvchilar ongiga Sharq xalqlarining tarixi, falsafiy dunyosi, ruhiy kechinmalari, turmush tarzini, umuman ajdodlarimizning ma'naviyatini singdirish orqali san'atdagi professionalizmni, borliqni mohirona tasvirlash usullarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tushuntirish imkoniyatlari ochiladi.

Jahon madaniyatining yirik vakillari (Leonardo da Vinchi, Rembrandt. Kamoliddin Behzod, Matiss va boshqalar) ularning yutuqlaridan unumli foydalangan holda ijodiy kamolot cho'qqisini zabt etganlar. Mazkur ma'lumotlarni badiiy-estetik tarbiya jarayonida qo'shimcha o'quv material sifatida qo'llanishi har ikki yo'nalishdagi san'atni bir-birini boyitganligiga yaqqol misol bo'ladi va ulardan foydalanish, shubhasiz, o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi. Zero, bir millatning san'ati doirasida tom ma'nodagi ma'naviy kamolotni tasavvur etish qiyindir. Shu o'rinda Sharqni G'arbga, G'arbni Sharqqa ijobiy ta'siri ibratlidir. Bu ta'sir adabiyot va san'atda yaqqol ko'rinadi. Hoja Hofizning

*Agar ko'nglimni shod etsa o'shal Sheroz jononi,*

*Qaro holiga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni*

misralari Y.V.Gyotening "G'arbu Sharq devoni" asarining yuzaga kelishida ilhom manbai bo'lgan. Sharq miniatyura san'atidan Rembrandt kabi buyuk rassom

ham ilhomlangan. Uning eng e'zozli buyumlaridan biri Sharq miniatyura san'ati asarlari bo'lgan. Rassom o'z ijodida o'sha muraqqa-albomdagi miniatyuralarga, ularning syujetiga qayta- qayta murojaat etgan.

Kamoliddin Behzod vafotidan so'ng 333 yil o'tgach dunyoga kelgan mashhur Anri Matiss rassom sifatida to'laqonli shakllangandan so'ng ham Behzod asarlaridagi ranglarning tiniqligidan hayratga tushgan. 1910 yilda Myunxenda o'tkazilgan "Musulmon san'ati" ko'rgazmasida namoyish etilgan, aslida 1507 yilda Kamoliddin Behzod tomonidan yaratilgan "Shayboniyxon portreti" asarini ko'rgan Renuar "Ko'zlarimga ishonmayman, - deya xitob etgan. Bu Sharqni O'z navbatida, Evropa san'atini, xususan tasviriy san'atini ham Sharq tasviriy san'atiga ta'sir o'tkazganligini ko'rish mumkin. Bu ta'sirning muvozanatini, uyg'unlashuv jarayonini kuzatish va undan to'g'ri xulosa chiqarishga qodirlik shubhasiz ma'naviy yetuklik alomatidir. Shu o'rinda G'arb va Sharq tasviriy san'atining o'ziga xos sintezini o'z ijodiga ijobiy singdirgan O'zbekiston xalq rassomi, professor Chingiz Ahmarovning xotiralaridan foydalanish san'at sirlarini egallayotgan o'quvchilarning ma'naviy dunyosining "ozuqa"si bo'ladi. Rassomning xotiralarida qayd etilishicha, uning ko'z o'ngidan Kamoliddin Behzod, Sulton Muhammad, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Amri Matisslarning asarlari ketmagan, ruhida musiqa sadolariday doimo yangrab turgan. Rassom o'z ijodi davomida Niderlandiya va Italiya, Fransiya va Rossiyaning buyuk rassomlarining badiiy merosidan ilhomlanib kelgan. U Andrey Rublev. Ilya Repin, Rembrandt, Rubens, Klod Mone, Gogen, Van Gog asarlarini uzoq yillar ko'ra olmasa cho'lda uzoq yurib chanqagan odamday betoqatlana boshlagan. Shuningdek, o'zining ozuqa manbai sifatida Go'ri Amir maqbarasini, Registon ansamblini tilga olar ekan, ularni ruhini sug'orib turadigan ma'naviy buloqlar deb ataydi. Ch.Ahmarovning buyukligi, ma'naviy dunyosining boyligi ham aynan o'sha ikki yo'nalishdagi san'atni eng ibratli xislatlarini ijobiy o'zlashtirgan holda o'ziga xos milliy tasviriy san'at maktabini yarata olganligidadir. Bu maktab, shubhasiz, Sharq miniatyura san'atining zamonaviy talqini sifatida namoyon bo'ldi va O'zbekiston tasviriy san'ati tarixida yorqin sahifa bo'lib qoldi. Eng asosiysi, millatga. milliy san'at ravnaqiga qayg'urish, unga e'tiqodda bo'lish rassom ma'naviyatining asosini tashkil etdi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, e'tiqod va ma'naviyat dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ichki dunyosini, tafakkurining eng asosiy mahsuli bo'lishi lozim. Aynan shuning uchun Kamoliddin Behzodni ham, Chingiz Ahmarovni ham jahon tasviriy san'ati tarixi buyuk musavvirlar sifatida tan oldi. Miniatyura san'atiga oid shu kabi biografik-faktologik materiallar bevosita o'quvchilarni miniatyura san'atiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirishda o'ziga xos "yo'naltiruvchi kuch", omil sifatida e'tiborlidir. Bevosita miniatyura san'ati asarlarini o'ganish ham o'quvchilarning ma'naviy

kamolotida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, milliy madaniyat va san’atga e’tiqodlarini shakllantirishda qadimiy- tarixiy materiallar bilan bir qatorda bugungi kun miniatyura san’atiga oid materiallardan o‘quv materiali sifatida foydalanish ham o‘rinlidir. Endilikda miniatyura san’ati sohasida ijod qilayotgan rassomlar orasida O‘zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a’zolari, akademiklar (Shomahmud Muhammadjonov, Niyozali Holmatov), Kamoliddin Bexzod nomidagi davlat mukofotining laureatlari (Toir Boltaboev, Xurshid Nazirov, G‘ayrat Kamolov) borligi o‘quvchilarni bu san’at turiga qiziqtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu, birinchidan, aynan miniatyura san’atining tarixiy-badiiy an’analari bilan uning zamonaviy ko‘rinishining o‘ziga xos sintezini kuzatish imkonini bersa, ikkinchidan, miniatyura san’atiga bo‘lgan ijtimoiy munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatish imkonini beradi.

Yuzaki qaraganda yuqorida keltirilgan ma’lumotlar o‘quv materiali sifatida tasviriy san’at ta’limi uchun bevosita aloqador emasdek tuyulishi mumkin. Biroq ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘quv soatining umumiy miqdorning salmoqli qismi (7 soat) miniatyura san’atiga oidligi uning o‘quv materiali sifatida muhimligini anglatadi. Tabiiyki, shu yo‘nalishdagi materiallarni asosli tarzda, qulay yo‘sinda taqdim etilishi didaktik imkoniyat sifatida bevosita ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekistan, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston. 2017.-1046.
3. Sulaymonova 3. Kitobat san’ati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Ilm-Ziyo, 2016. 96 b.
4. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, Z.Rahimova. Toshkent. “San’at” nashriyoti, 2000. 40 b.
5. Madraimov A. O‘zbekiston miniatyura san’atini o‘rganish muammolari. Jurnal. “San’at”. 2015, 2-son. B. 25-27
6. Ortiqova, O. (2021). AMALIY MASHG'ULOTLARNI ZAMON TALABI ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Физико-технологического образования*, 4(4).
7. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany*, 93-96.

8. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)
9. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
10. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).
11. Алкаров, Қ. Х., Ибрагимов, А. Р., & Пардаев, Б. А. (2019). ТЎГАРАК АЪЗОЛАРИНИ ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ. *Интернаука*, (20-3), 51-52.
12. Alqorov, Q. (2020). Мухандислик таълимида талабалар техник ижодкорлик қобилияти ривожлантириш технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
13. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель – Участник - Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.
14. Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).
15. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'ATDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BAJARISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PYERSPEKTIVADAN FOYDALANISHGA O'RGATISH. *Science and Education*, 1(8).
16. Xudoyberdiyev, P. (2021). RANGTASVIR TARAQQIYOTINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
17. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARI ALOQADORLIGI ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).

18. Xudoyberdiyev, P. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI*.